

XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023- yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *birlikda*






Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **22 114** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **350** taga yoki **1,6 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,3** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar-martida **1 438** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,0 %** ga oshgan.

2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **22 114** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 438** tani tashkil etdi. Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 129** tani yoki jamiga nisbatan **18,7 %** ni tashkil etdi.

1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **11,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yil 1- aprel holatiga nisbatan **2,3** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbatining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **27,5** birlik, Xiva shahrida **18,9** birlik, Yangibozor tumanida **11,8** birlik, Urganch tumanida **11,7** birlik, Yangiariq tumanida **10,6** birlikka yetdi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Urganch shahri
– 27,5 birlik

O'rtacha ko'rsatkich

Xiva tumani
– 10,1 birlik

Eng past ko'rsatkich

Hazorasp tumani
– 6,6 birlik

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida **27,5** birlik, Xiva shahrida **18,9** birlik, Yangibozor tumanida **11,8** birlik, Urganch tumanida **11,7** birlik, Yangiariq tumanida **10,6** birlik, Tuproqqal'a tumanida **10,2** birlik, Xiva tumanida **10,1** birlik, Gurlan tumanida **9,6** birlik, Qo'shko'pir tumanida **9,4** birlik kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Urganch shahri
27,5

Xiva shahri
18,9

Yangibozor tumani
11,8

Urganch tumani
11,7

Yangiariq tumani
10,6

Tuproqqal'a tumani
10,2

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y. yanvar-mart		2023- y. yanvar-mart
169	Urganch sh.	187
100	Xiva sh.	89
133	Bog'ot	109
95	Gurlan	105
137	Qo'shkupir	126
118	Urganch	131
128	Hazorasp	110
35	Tupraqqal'a	39
120	Xonqa	75
73	Xiva	81
73	Shovot	226
70	Yangiariq	95
56	Yangibozor	65

2023- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Shovot	15,7
Urganch sh.	13,0
Urganch	9,1
Qo'shkupir	8,8
Hazorasp	7,6
Bog'ot	7,6
Gurlan	7,3
Yangiariq	6,6
Xiva sh.	6,2
Xiva	5,6
Xonqa	5,2
Yangibozor	4,5
Tupraqqal'a	2,7


2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shovot tumani – **15,7 %**, Urganch shahri – **13,0 %**, Urganch tumani – **9,1 %**, Qo'shko'pir tumani – **8,8 %**, Hazorasp tumani – **7,6 %**, Bog'ot tumani – **7,6 %**, Gurlan tumani – **7,3 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yil 1- aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil 1- aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **599** ta, sanoatda **258** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **151** ta yangidan tashkil etilgan.


Tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Shovot tumanida (**226** ta), Urganch shahrida (**187** ta) hamda Urganch tumanida (**126** ta) yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023- yillarning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-mart davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yil 1- aprel holatiga jami **7 453** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **2 655** ta yoki **35,6 %**, xizmatlar sohasida – **1 529** ta (**20,5 %**), sanoat sohasida – **1 686** ta (**22,6 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 165** ta (**15,6 %**) va qurilish sohasida – **418** tani (**5,6 %**) tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,7%** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **1,1** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **97,7%**ni, yo'lovchi aylanmasida **96,3%**ni, yo'lovchi tashishda **94,7%** ni, qurilishda **96,5%**ni, yuk tashishda **92,5%**ni, savdoda **91,6%** ni tashkil etdi


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati yanvar-mart

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati yanvar-mart

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati yanvar-mart

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati yanvar-mart

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati yanvar-mart

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati yanvar-mart

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2023- yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Urganch sh.	223,2
Xiva sh.	66,7
Bog'ot	41,2
Gurlan	38,7
Qo'shko'pir	30,7
Urganch	109,0
Hazorasp	30,8
Tuproqqal'a	88,3
Xonqa	107,5
Xiva	60,5
Shovot	39,2
Yangiariq	34,3
Yangibozor	22,1

2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **892,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**223,2** mlrd. so'm), Urganch (**109,0** mlrd. so'm), Xonqa (**107,5** mlrd. so'm), Tuproqqal'a (**88,3** mlrd. so'm) tumanlari va Xiva sh. (**66,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Yangibozor tumanida (**22,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


Urganch sh.	25,0
Urganch	12,2
Xonqa	12,1
Tuproqqal'a	9,9
Xiva sh.	7,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **18,4 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva shahri (**100,0 %**), Urganch tumani (**49,9 %**), Xiva tumani (**48,5 %**), Bog'ot tumani (**44,1 %**), Xonqa tumani (**43,6 %**), Urganch sh. (**29,7 %**), Gurlan tumani (**24,3 %**), Hazorasp tumani (**24,3 %**) va Yangibozor tumani (**20,8 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **845,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **99,5 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (**201,8** mlrd. so'm), Xiva (**81,4** mlrd. so'm), Urganch (**66,2** mlrd. so'm), Xonqa (**58,7** mlrd. so'm), Qo'shko'pir tumanlari (**57,9** mlrd. so'm), Xiva sh. (**55,9** mlrd. so'm) hamda Gurlan (**32,6** mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd so'mda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **741,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **44,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-martga nisbatan **61,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Urganch shahri (**176,8** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**123,5** mlrd. so'm), Urganch (**87,3** mlrd. so'm), Yangibozor (**69,7** mlrd. so'm), Hazorasp tumanlari (**46,6** mlrd. so'm), Xiva sh. (**40,8** mlrd. so'm) hamda Xonqa (**35,1** mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, *tmlrd. so‘mda*




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **3 268,7** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **97,7 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yil yanvar-martga nisbatan **105,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Qo‘shko‘pir (**396,5** mlrd. so‘m), Urganch (**363,4** mlrd. so‘m), Gurlan (**342,2** mlrd. so‘m), Xiva (**336,1** mlrd. so‘m), Xonqa (**314,9** mlrd. so‘m) hamda Shovot (**291,7** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd so'mda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **1925,5** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,6 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-martga nisbatan **101,1 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Urganch sh.	399,4
Hazorasp	260,3
Urganch	207,0
Gurlan	172,5
Shovot	145,4
Xonqa	142,9
Bog'ot	136,1
Yangiariq	101,4
Qo'shko'pir	96,1
Xiva sh.	88,8
Yangibozor	63,4
Xiva	59,8
Tuproqqal'a	52,4


2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**399,4** mlrd. so'm), Hazorasp (**260,3** mlrd. so'm), Urganch (**207,0** mlrd. so'm), Gurlan (**172,5** mlrd. so'm), Shovot (**145,4** mlrd. so'm) va Xonqa (**142,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1649,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **60,7 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **102,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**393,0** mlrd. so'm), Xonqa (**138,8** mlrd. so'm), Urganch (**131,9** mlrd. so'm), Gurlan (**118,2** mlrd. so'm), Hazorasp (**116,7** mlrd. so'm), Bog'ot (**111,6** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir (**109,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati yanvar-mart

Hajmi, mln. AQSH dollar




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati yanvar-mart


Hajmi, mln. AQSH dollar



Ulushi, %da




2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar)




■ hajmi, ming. AQSH dol. ■ foizi, %

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **40,3** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **56,5 %** ini tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qo'shko'pir va Xiva tumanida – **100,0 %**, Xiva sh.– **97,6 %**, Gurlan tumanida – **81,1 %**, Bog'ot tumanida – **77,4 %**, Xonqa tumanida – **66,0 %**, Hazorasp tumanida – **54,6 %** va Urganch tumanida – **52,2 %**, eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – **22,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **48,3** million AQSH dollarini yoki jami importning **36,5** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Xiva sh. – **100,0** %, Yangibozor tumanida – **95,7** %, Xiva tumanida – **94,8** %, Hazorasp tumanida – **93,6** %, Urganch sh.– **93,3** %, Bog'ot tumanida – **87,5** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **70,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,5 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,7 %** ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,3 %** ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 990 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 295 tasi (29,8 %) iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 650 ta (65,7 %) subyekt iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 45 ta (4,5 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 39,6 % (392 ta), xizmatlar sohasida – 28,5 % (282 ta), sanoatda – 15,0 % (149 ta), qurilishda – 8,2 % (81 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,7 % (86 ta)ni tashkil etdi.

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (**231** ta), Urganch (**105** ta), Bog'ot tumanlari (**71** ta), Xiva sh. (**71** ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **41,8 %**ni, qurilishda – **34,6 %** ni, xizmatlar sohasida – **29,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda – **71,1 %**ni, xizmatlar sohasida – **66,7 %**ni, savdoda – **66,3 %**ni, qurilishda – **59,3 %**ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilishda – **6,1 %**ni, savdoda – **4,9 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,8 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 65,1 %ni, qurilishda – 51,8 %ni, savdoda – 46,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda – 63,1 %ni, xizmatlar sohasida – 57,1 %ni, savdoda – 51,0 %ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilishda – 3,8 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,6 %ni, sanoatda – 2,7 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	36,6	56,3	7,1
Band bo'lganlar soni	22,7	73,0	4,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	28,3	66,5	5,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	27,1	65,9	7,0
Raqobat muhiti	38,1	57,8	4,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,6	53,1	3,3
Band bo'lganlar soni	26,4	70,8	2,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,8	63,2	3,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,4	65,7	7,9
Raqobat muhiti	40,6	56,7	2,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli